

Umumta'lim maktablari 5-sinf o'quvchilarining 2025-2026 o'quv yilida tabiiy fanlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test topshiriqlari varianti

5 - __ sinf o'quvchisi _____

F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiy ball: _____ (maksimal ball: 40)


II CHORAK ChSB I VARIANT

1. Qaysi qatorda moddaning agregat holatlari to'g'ri keltirilgan? (Bilish- 2,5 ball)


- A. Suv, bug', muz
- B. Kislorod, karbonat angidrid, suv bug'i
- C. Suyuqlik, metall, modda
- D. Qattiq, suyuq, gazsimon

2. Qaysi model moddaning suyuq holatini ifodalaydi? (Qo'llash- 4,5 ball)

- A. a
- B. b
- C. d
- D. hech qaysi



3. Madina rasmdagi ko'rsatilganidek uchta shisha idishni raqamlab, ularga bir xil miqdorda suv quydi va ertalabdan kechgacha stol ustida qoldirdi. Qaysi idishdagi suyuqlik eng sekin bug'lanadi? (Qo'llash- 4,5 ball)



- A. 1
- B. 2
- C. 3
- D. Hammasi bir xil

4. Chiziqlar o'rniga mos so'zlar berilgan qatorni tanlang.

Murod issiq quyoshli kunda quyoshdan himoya ko'zoynagini taqib, salqin xonaga kirdi. Birozdan so'ng ko'zoynakda _____ paydo

bo'lganini ko'rdi. Bu jarayon _____ deb ataladi. (Qo'llash- 4,5 ball)

- A. suv bug'i, kondensatsiya
- B. suv tomchilari, kondensatsiya
- C. ko'zoynak terlashi, kondensatsiya
- D. suv tomchilari, ko'zoynak bug'lanishi

5. Bug'lanish natijasida modda _____ (Bilish- 2,5 ball)

- A. suyuq holatdan gazsimon holatga o'tadi
- B. gazsimon holatdan suyuq holatga o'tadi
- C. doimiy gazsimon holatda bo'ladi
- D. gazsimon holatini o'zgartirmaydi

6. Zamira yuvilgan kiyimlar issiq yoki salqin kunda tez qurishini aniqlash uchun tadqiqot o'tkazmoqchi. Ushbu tadqiqotda erksiz o'zgaruvchini aniqlang. (Qo'llash- 4,5 ball)

- A. Suvning bug'lanish harorati
- B. Kiyim qurishi uchun ketgan vaqt
- C. Kiyim tarkibidagi suv miqdori
- D. Kiyimni yuvish uchun ketgan vaqt

7. Qaysi qatorda suvda erimaydigan qattiq moddalar keltirilgan? (Qo'llash- 4,5 ball)


1- ko'mir, 2- muz, 3- tuz, 4- qum, 5- un, 6- shakar, 7-asal, 8-guruch donalari

- A. 3, 4, 7, 9
- B. 2, 3, 5, 7
- C. 1, 4, 5, 8
- D. 1, 5, 7, 8

8. Rasmda qizdirilayotgan suv haroratining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi grafigi berilgan. Suv qaynashi uchun qancha vaqt ketgan?

(Mulohaza – 5,5 ball)

- A. 1 minut
- B. 5 minut
- C. 10 minut
- D. 15 minut



9. Havoning qarshilik kuchi — (Bilish- 2,5 ball)

- A. bir-biriga tegib turgan ikki sirt orasida paydo bo'ladigan kuch
- B. gravitatsiya kuchiga qarama-qarshi holda yuqoriga yo'nalgan kuch
- C. havoda harakatlanayotgan jism va havo orasidagi ta'sir kuchi
- D. jismning harakatiga doimiy to'sqinlik qiluvchi kuch

10. Bola koptokni yuqoriga irg'itmoqda. Koptokka qanday kuchlar ta'sir qilyapti? (Qo'llash- 4,5 ball)

- A. havoning qarshiligi va gravitatsiya
- B. gravitatsiya kuchi va koptok kuchi
- C. tayanchning reaksiya kuchi va gravitatsiya
- D. gravitatsiya va og'irlik kuchi

